HAMSHIRALAR YONDOSHUVI ORQALI BRONXIAL ASTMA ASORATLARINI ERTA ANIQLASH

Razikova I. S., Alikulova D.Ya.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Kirish. Dunyoda birlamchi tibbiy yordam ko’rsatish tizimi yaxshi rivojlangan davlatlarda surunkali kasallikka chalingan bemorlarni hamshiralar nazorat qilib boradilar. Ko’plab davlatlarda turli kasalliklar bo’yicha shifokor nazorati ostida an’anaviy davolanishdan ko’ra surunkali va yuqumli bo’lmagan kasalliklarni vaqtida aniqlab, u hamshira tomonidan nazorat qilib borilsa, oila byudjeti ham zarar ko’rmasligi aniqlangan. Shunday ekan, hamshiralar tomonidan bronxial astma bilan og’rigan bemorlarga kasallikni nazorat qilishni o’rgatish orqali bemor umrini uzaytirish, mehnatga layoqatligini tezroq tiklashga erishish mumkin hamda bemorlar o’z kasalligi haqida tibbiy bilimlarga mukammal ega bo’lishi o’lim va nogironlikning oldi olinishiga, bemorning hayotiy sifat ko’rsatkichini oshishiga olib keladi.

Tadqiqot maqsadi. birlamchi tibbiy - sanitar yordam ko’rsatish muassasalarida faoliyat yuritayotgan hamshiralarning bronxial astma kasalligida bemorlarga ko’rsatilayotgan hamshiralik yondashuvi bo’yicha kasbiy malakasini optimallashtirish.

Materiallar va usullar. Tibbiy - ijtimoiy, funktsional, epidemiologik, statistik, ekspert baholash usullar.

Tadqiqot natijalari. BA kasalligining ikkilamchi profilaktikasida hamshiralar tomonidan bemorlarni astmani nazorat qilishga o’rgatishi yaxshi samara beradi. Hamshiralar tomonidan yondashuv o’zini nazorat qilish, bemor bilan hamkorlikda individual rejalar tuzish, zarur dori vositalaridan foydalanishni targ’ib qilish va tegishli nazoratni muvofiqlashtirishni o’z ichiga oladi. BA kasalligining kechishini, kasallikning ijtimoiy prognozini ambulatoriya bosqichidayoq aniqlashga, BA bilan og’rigan bemorlarga o’z vaqtida tashxis qo’yishga, kasallikning erta va kechki asoratlarini oldini olish va reabilitatsiya samaradorligiga erishishga, BA kasalligi bilan og’rigan bemorlarga nisbatan ambulatoriya - poliklinika faoliyatidagi ob’ektiv va sub’ektiv qiyinchiliklarni bartaraf etishga, xavf omillarini, kasallikning rivojlanishining patogenetik mexanizmlarini aniqlashga, ushbu kasallikni erta tashxislash va hamshiralik yondashuvini standartlashtirish va birlashtirishga qaratilgan. RIIAMga BA bilan murojaat qilgan va statsionar davo olayotgan bemorlarning kasallik tarixining tahlil natijalariga ko’ra, BA kasalligining asoratlari bilan statsionarga yotqizish hollari yiliga o‘rtacha 2-3 martani tashkil qiladi. BA bilan statsionarga yotqizishni talab qiladigan asoratlar chastotasi quyidagicha: 1 yilda 1 marta - 6,7 %, 2 marta-46,7%, 3 marta - 43%, 4 va undan ko’p - 3,3%ni tashkil qilgan. So’rovnomaga ko’ra, BA xurujini bartaraf etish uchun bemorlar turli dorilar guruhidan foydalanganlar. Shuningdek, bemorlarning 33% sal’butamol, 27% - simbikort, 23% - budesonid (pulmikort), 17% - berodualdan foydalanishgan. Budesonid astma xurujlarini bartarf etishda «tez yordam» preparatlar guruhiga kirmasligiga qaramasdan, uni bu ro’yxatda ko’rish kutilmagan hol bo’ldi. Shu nuqtai nazardan, bemorlar davolanish asoslarini tushunmaydilar va natijada qo’llanilgan davolash vositalari haqida ma’lumotga ega emaslar. Bu bemorlar uchun astma maktablari juda muhim bo’lib, bu yerda ular BA, uni davolash asoslari, kasallikning asoratlari, uning profilaktikasi to’g’risida ma’lumotlar oladilar. RIIAMda yotib davolanishning eng qisqa vaqti (tadqiqotimizda 8,0±1,44 kunni tashkil etdi) astma maktabida o’quv vaqtining chegaralanishiga olib keladi. Ko’pincha tavsiyalar qisqa muddatli va tartibsiz xarakterga ega. Bu shoshilinch tibbiy yordam ko’rsatishning statsionar bosqichining o’ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Shuningdek, bemorlar uchun o’z kasalliklari haqidagi bilimlarining mustahkamlashi uchun bu vaqt juda qisqa hisoblanadi.

Xulosa. BA kasalligida bemorlarning kasallik bo'yicha tibbiy saviyasini oshirish va o'ziga yordam ko'rsata olishga o'rgatish uchun birlamchi tibbiy -sanitariya yordam ko'rsatish muassasalarida astma maktablari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda bu maktabga hamshiralarni jalb qilish orqali BA tashxisli bemorlarni o'qitish bronxial astma bilan og'rigan bemorlarni kompleks davolashning muhim elementi hisoblanadi. Bu orqali statsionar va birlamchi zveno o'rtasida uzluksizlik negizi asosida faoliyat yuritish yuzaga keladi.